



PARLAMENT NAZORATI NATIJALARI VA ULARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI

Sultanova Niyozjon

Xorazm yuridik texnikumi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hukumat va boshqa davlat organlarining faoliyatini nazorat qilishning asosiy mexanizmlaridan biri - parlament nazorati natijalari va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni xususida atroflicha so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Parlament nazoratining maqsadi, parlament tekshiruvlari, parlament eshituvi, komissiyalar hujjatlarni so'rab olishi, parlament nazorati natijalari.

O'zbekiston Respublikasida parlament nazorati hukumat va boshqa davlat organlarining faoliyatini nazorat qilishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. U davlat boshqaruvi va qonun chiqarish jarayonlarining samaradorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, shu orqali davlat resurslarini taqsimlash, korrupsiyani oldini olish va qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Parlament nazorati natijalari, asosan, davlatning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu paragrafda parlament nazoratining O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvidagi o'rni, uning samaradorligi va natijalari tahlil qilinadi, shuningdek, xalqaro amaliyotlar va boshqa mamlakatlardagi tajribalar o'rganiladi. Parlament nazorati – bu parlamentning ijrochi hokimiyat, boshqa davlat organlari va davlat xizmatchilarining faoliyatini tahlil qilish, baholash va ularga ta'sir o'tkazish orqali davlat boshqaruvining samaradorligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy jarayonlardir. Parlament nazoratining maqsadi – davlat organlarining qonunlarga rioya qilishini, byudjet mablag'larining to'g'ri sarflanishini, shuningdek, davlat siyosatining xalq manfaati yo'lida amalga oshirilishini nazorat qilishdir.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishi bilan “Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi doirasida davlatchilik mexanizmlarini takomillashtirish va hokimiyat organlarining jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirishga faol intilish kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan parlament nazorati davlat tuzilmalari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Davlat byudjetining ijrosini olib borishda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ko'maklashadi, ya'ni axborot va zarur materiallarni har chorakda (3 oyda bir marta) yuborishi shart. O'zbekiston Respublikasi Parlamenting deyarli barcha subyektlari bu jarayonda ishtirok etadi, ya'ni deputatlar va senatorlardan tortib, fraksiya va qo'mitalargacha ishtirok etadi. Parlamentda ikkita ya'ni, har chorakda va har yilgi davlat byudjetining ijrosini ko'rib chiqish bo'yicha harakatlar olib boriladi.

Har chorakdagi davlat byudjeti ijrosining ma'lumotlari Moliya vazirligi tomonidan olib borilsa, har yilgi byudjet ijrosi natijalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etiladi. Bu



jarayonning muddati keying yilning 15-mayigacha amalga oshirilishi kerak. Bu muddat Ishida Hisob palatasining tegishli xulosasi olinishi shart. Davlat byudjeti ijrosining borilishida deputatlar, senatorlar, qo'mitalar va fraksiyalar ma'lumotlar talab qilib olishi va o'rganish tashabbusi bilan davlat organlariga chiqishi mumkin. Davlat byudjeti ijrosini borishi jarayonida fraksiyalar va qo'mitalar dastlabki tarzda ko'rib chiqiladi. Bu jarayon byudjet ijrosining qonuniy borilishida katta rol o'ynaydi.

Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma'ruzasi mavjud bo'lib, u Parlamentga har yili taqdim etib boriladi. Bu ishni Bosh vazir amalga oshiradi va Oliy Majlis palatalariga taqdim etadi. Bu ma'ruza Qonunchilik palatasining va Senatning majlislarida majburiy ravishda ko'rib chiqilishi shart etib belgilangan. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, bu vakolat, ya'ni majlislarda majburiy ravishda ko'rib chiqish Davlat byudjetining ijrosini olib borishda qat'iy belgilanmagan. Davlat byudjetining ijrosining borishi eng muhim masala hisoblanib, xalq hayotida asosiy rol o'ynaydi. Vazirlar Mahkamasining har yilgi ma'ruzasini ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha qabul qilingan Qonunchilik palatasi va Senatning qarori Vazirlar Mahkamasiga qayta yuboriladi. Ya'na bir narsani alohida ta'kidlash joizki, Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot fraksiyalarda, Oliy Majlis palatalarining qo'mitalarida muhokama qilinganidan keyin Oliy Majlis palatalarining majlislarida ko'rib chiqiladi hamda Qonunchilik palatasining va Senatning qarori bilan tasdiqlanadi, lekin bu qarorlar qay yerga yuborilishi to'g'risida ma'lumot mavjud emas.

So'nggi yillarda parlament nazoratining faollashuvi kuzatilmoqda. Oliy Majlis faoliyatini tartibga soluvchi va uning nazorat funksiyalarini kuchaytiruvchi qonunlarning qabul qilinishi muhim bosqich bo'ldi. 2017–2022-yillar davomida parlament tuzilmalari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar va monitoringlar soni avvalgi davrlarga nisbatan o'tiz foizga oshganligi deputatlarning davlat organlari ishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan manfaatdorligi oshganidan dalolat beradi.

Byudjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanishning ko'plab holatlari aniqlanganligi nazoratning muhim natijalaridan biri bo'ldi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda byudjet ijrosi bo'yicha 150 ta hisobot ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning 20 foizida qoidabuzarliklar mavjud bo'lgan. Bu esa hisobot berish va byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan nazorat qilishning yanada qat'iy mexanizmlarini joriy etishga olib keldi.

Yangi O'zbekistonda parlament nazorati natijalarini chuqurroq tushunish uchun xalqaro amaliyotga murojaat qilish foydalidir. Germaniya, Kanada va Yangi Zelandiya kabi rivojlangan demokratik tizimga ega mamlakatlarda parlament nazorati turli mexanizmlar, jumladan, komissiyalar, parlament tekshiruvlari va eshituvlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, Germaniyada Bundestag ijro hokimiyati ishini tekshirish uchun maxsus komissiyalar tuzish imkoniyatiga ega. Ushbu komissiyalar hujjatlarni so'rab olishi va guvohlarni eshitishi mumkin, bu esa parlamentning nazorat qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Bunday ishlar natijasida davlat boshqaruvi sohasidagi yutuqlar fuqarolar uchun yanada shaffof va tushunarli bo'lib bormoqda.





O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan mamlakatimizdagi korrupsiya tizimiga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza tuzib chiqiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori tomonidan bu milliy ma'ruza Oliy Majlis palatalariga taqdim etiladi. Bu milliy ma'ruza Qonunchilik palatasi hamda Senat tomonidan majburiy ravishda muhokama qilinishi shart. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, majburiy ravishda muhokama qilish to'g'risidagi band parlament nazorati shakllarini chuqur isloh qilinganligidan dalolat beradi. Milliy ma'ruzaning ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha Qonunchilik palatasi va Senat qarorlar qabul qiladi va takliflar bilan birgalikda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga qayta yuboriladi.

Qonunda Qonunchilik palatasi va Senat Bosh vazirning Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ayrim dolzarb masalalari bo'yicha hisobotni eshitishlari mumkinligi to'g'risida qayd etilgan. Bu jarayon parlament so'rovi tartibida olib borilib, fraksiyalar va qo'mitalar tomonidan birinchi navbatda majburiy muhokama qilinish kerakligi aytilgan. Shu o'rinda quyidagi qonun hujjatiga o'zgartirish kerak deb hisoblayman, ya'ni, Qonunchilik palatasi va Senat Bosh vazir hisobotini "eshitishi mumkin" emas, balki majburiy qilinishi shart. Bu jarayon yuqoridagi parlament nazorati shakllaridan hech qanday kam joyi mavjud emas. Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Bosh vazir hisobotini eshitish yakunlari bo'yicha qabul qilingan qarorlar Vazirlar Mahkamasiga yuboriladi.

Qonunchilik palatasi va Senat o'z majlislarida davlat organlari va xo'jalik boshqaruv organlari rahbarlarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axborot berilishini so'rashi va palatalar tomonidan eshitislihi mumkin. Bu parlament nazorati shaklining yagona turi bo'lib, ya'ni Qonunchilik palatasi tomonidan fraksiyalar tashabbusiga ko'ra va Senat tomonidan esa qo'mitalarning tashabbusiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

Qo'shimchasiga, davlat organi hisoblangan Sog'liqni saqlash vaziri va uning faoliyati to'g'risidagi axborotini Qonunchilik palatasiga taqdim etadi. Bu faoliyat to'g'risidagi axborotni dastlabki darzda Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasida ko'rib chiqiladi. Bu jarayon bir yilda ikki marta davom etadi.

Xuddi shunday, lekin Senatga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risidagi axborotni yilida ikki marta taqdim etadi. Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi dastlabki tarzda ko'rib chiqadi. Bu huquqbuzarlikning oldini olish va uning profilaktikasi boyicha bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri va uning faoliyati to'g'risidagi axborot qaysi organ tomonidan nazoratga olinganligi mavhum.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining o'z faoliyati haqidagi axborotini Senatga yiliga ikki marta taqdim etadi. Bu axborot dastlabki tarzda Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasida ko'rib chiqiladi.

Qo'shimchasiga, Senat har yili O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo'llash amaliyotining





holati to'g'risidagi axborotini ikki marta ko'radi. Bu Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasida dastlabki tarzda ko'rib chiqqan holda eshitadi.

Hukumat a'zolarining, davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axborotini eshitish to'g'risidagi qaror Qonunchilik palatasi va Senat tomonidan qabul qilinib, hukumat a'zolarini eshitish to'g'risidagi qaror Vazirlar Mahkamasiga, davlat organlari va xo'jalik boshqaruv organlarining axborotini eshitish to'g'risidagi qaror esa tegishli davlat organiga va xo'jalik boshqaruv organiga yuboriladi.

Qonunchilik palatasi, qoida tariqasida, bir oyda bir marta o'z majlisida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitadi, bu jarayon "hukumat soati" deb yuritiladi. Bu yagona parlament nazorati shakli bo'lib, ya'ni, bu parlament nazorati shakliga alohida nom berilgan.

Hukumat soatining o'tkazilish vaqti va jadvali Bosh vazir bilan kelishilgan holda Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan belgilanadi. Qonunchilik palatasi deputatlarining hukumat a'zolariga savollari kamida 10 kun oldin Vazirlar Mahkamasiga yuboriladi.

Vazirlar Mahkamasi Qonunchilik palatasi deputatlarining savollaridan kelib chiqadigan hukumat a'zolarining ro'yxatini shakllantiradi va mas'ul hukumat a'zolarini belgilaydi. Hukumat soati yakunlari bo'yicha Qonunchilik palatasi qarori qabul qilinishi va tegishli organlarga yuborilishi mumkin. Asosiysi, "Hukumat soati" faqatgina Qonunchilik palatasi majlislarida o'tkaziladi.

Oliy Majlis Senati majlislarida viloyat, tuman va shahar hokimlarining tegishli hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlar talab qilib olish huquqiga ega. Bu hisobotlar Senat majlislarida eshitalishi mumkin.

Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining tegishli hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish to'g'risidagi masala Senat tomonidan uning qo'mitalari tashabbusiga ko'ra ko'rib chiqiladi. Senat va uning qo'mitalari hisobotlarni eshitish yuzasidan tegishli qaror qabul qilinib, hokimlarga oldindan yuboriladi. Qo'shimchasiga, Senat hokimlarning hududning rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish yakunlari bo'yicha qaror qabul qilinadi va bu qaror qaysi davlat organiga yuborilishi yuzasidan ma'lumotlar mavjud emas.

Oliy Majlis senati O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan hisobotlarini o'z majlisida eshitish huquqi mavjud. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasida dastlabki tarzda eshitaladi. Qizig'i shundaki, bu yagona parlament nazorati shakli bo'lib, ya'ni, videokonferensaloqa rejimida eshitalishi mumkin.

Senat O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirliga eshituvni tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish to'g'risida choralar ko'rilishi uchun vazirlikni oldindan xabardor qiladi.





Chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish yakunlari bo'yicha Senat qaror qabul qiladi, unda ushbu rahbarlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar bo'lishi, shuningdek ularning ishiga baho berilishi mumkin.

Diplomatik vakolatxonalar rahbari o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish yakunlari bo'yicha Senatdan qaror qabul qilib oladi, xuddi shu qaror O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasida parlament nazorati, davlat boshqaruvida muhim o'rinni egallaydi va uning samaradorligini oshirish, davlat resurslarining oqilona ishlatilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Parlament nazorati natijalari, shuningdek, korrupsiyani kamaytirish, davlat faoliyatining shaffofligini oshirish va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga olib keladi. Biroq, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish uchun bir qator takliflar mavjud bo'lib, ular amalga oshirilganda parlament nazoratining ahamiyati yanada kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.:“Ўзбекистон”, 2023 й.
2. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси қонунига шарҳлар. // Масъул муҳаррир Рашидова. С.Ш. – Т.: Адолат, 1998.
3. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида”ги Конституциявий қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2002.– 12-сон. 215-модда.
4. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати тўғрисида”ги Конституциявий қонун // Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2002.– 12-сон. 213-модда.
5. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Регламенти тўғрисида”ги қонун // Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2003.– 9-10-сон. 136-модда.
6. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг Регламенти тўғрисида”ги қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. – 2005.–5-сон. 161-модда.
7. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутатининг ва Сенати аъзосининг мақоми тўғрисида”ги қонун // Халқ сўзи. 2005 йил 27 январь.
8. “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида”ги қонун // Халқ сўзи. 2019 йил.

